

2012-2022 yil

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

UV8825806068

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi **Qozoyoqli loyixa shartnoma**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: YAKKABOG' TUMANI KOMMUNAL FOYDALANISH BOSHQARMASIGA QARASHLI OBODONLASHTIRISH VA KO'KALAMZORLASHTIRISH KORXONASI tomonidan 02.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yakkabog' tuman  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**J.T.Almardonov**

02.12.2022



**Loyiha-smeta va qidiruv ishlarini bajarish uchun****SHARTNOMA**

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **Yakkabog' tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan **Nizom** asosida ish ko'ruvchi **S.Suyunov** bir tomondan va ikkinchi tomondan keyingi o'rinlarda Bajaruvchi deb ataluvchi "**NAKSHSHAB DESIGNER MCHJ**" nomidan ish yurituvchi **R.Botirova** urtasida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagi shartnomani tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Buyurtmachi, Yakkabog' tumani To'qboy MFY Qozoyoqli qishlog'i ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlarini uchun loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash va tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlariga ekspertiza xulosasi olish ishlarini topshiradi, Bajaruvchi esa o'z zimmasiga oladi.

**2. Shartnoma baxosi va to'lovlar koidalari**

2.1. Ishlarni amalga oshirishning umumiy baxosi **35 324 450** (O'ttiz besh million uch yuz yigirma to'rt ming to'rt yuz ellik) so'mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi loyixa xujjatlarini bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnomani G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng shartnomaning belgilangan baxosining 30% miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bulmaydigan kuch (fars-major) xolatlari sabab bulganda yoki ishlar-xajmi Buyurtmachi tomonidan uzgartirilganda shartnoma baxosi uzgartirilishi mumkin.

2.4. Xar bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i mikdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.5. Buyurtmachi ishlarini topshirish-kabul kilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng 5 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga xaq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

2.6. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda; ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

**3. Tomonlar majburiyatlari**

Bajaruvchi ishlarini dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarining (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

Buyurtmachi ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

Buyurtmachi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarining shartnomada ko'rsatilgan xajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarini uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

Buyurtmachi tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarini boshlash va tugallash muddati xam avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.5 Ushbu shartnoma buyicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z xisobidan qaytadan bajaradi.

**4 Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

4.1 Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarini topshirish va qabul qilish



4.2 Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni kabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni kabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan xisoblanadi va bunday xolatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3 Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan xolda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan xolda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4 Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5 Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish tug'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro xisob-kitob qilish vaqti xisoblanadi.

4.6 Lozim topilgan xollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

#### 5. Konfidensial ma'lumotlarini ximoyalash

5.1 Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial xisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan xollarda ularni ximoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

#### 6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari

Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlarini bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama kiladilar.

6.3 Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

#### 7. Qo'shimcha shartlar

Bajaruvchi loyixani muddatidan oldin bajargan xolda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

Xar bir obekt (Avtomobil yul) uchun Nuksonlar kaydnomasini Buyurtmachi tomonidan bajaruvchi ishtirokida aloxida ishlab chiqiladi xamda Bajaruvchiga topshiriladi.

7.3. Uzaro muloqat yo'li bilan xal qilinmagan muammolar konun xujjatlarida o'rnatilgan tartibda xal qilinadi. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda uzgartirishlar va ko'shimchalar kiritilishi mumkin.

Bajaruvchi mazkur shartnomada kursatilgan ishlarni bajarish vaktida uz imkoniyatlaridan kelib chikib, Buyurtmachini xabardor kilmagan xolda uchunchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustakil ravishda jalb kilish xukukiga ega.

Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti buyicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosobatlariga va Bajaruvchining obe'kt buyicha bajargan ishlariga nisbatan kullaniladi. Mazkur shartnoma amal kilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan uzaro muzokara yuli bilan xal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan takdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar iqtisodiy sudda e'tiroz tartibiga rioya kilgan xolda, kurib chikiladi. E'tirozlar yozma ravishda takdim kilinishi kerak va ularni



kurib chikish muddati e'tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnoma buyicha nizo kelib chikkan xollarda konunda belgilangan tartibda xal kilinadi.

Buyurtmachi tomonidan dastlabki tulov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 20 foizidan oshmasligi lozim.

Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatini 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 20 foizidan oshmasligi lozim.

Agar Buyurtmachining mazkur shartnoma tuzilgan kun xolatiga avvalgi shartnomalar buyicha Bajaruvchi oldida karzdorligi bulsa, Bajaruvchi ushbu shartnomaga asosan tulanagan pul mablaglaridan eng avvalo karzdorlikni ushlab kolishga va karzdorlik yopilgandan keyin kolgan mablaglarni ushbu shartnoma buyicha xisobga olishga xakli.

Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi Uzbekiston Respublikasining amaldagi konun xujjatlariga, xsusan Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga, «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisidagi Uzbekiston Respublikasining konuniga muvofik belgilanadi.

7.12. Buyurtmachining suroviga asosan zarur xollarda Joriy ta'mirlash ishlari smeta xujjatlariga uzgartirishlar kiritilishi mumkin.

7.13. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- \* Shartnoma baxosini kelishuv bayonnomasi (1- ilova)
- \* Smeta xisobi (2-ilova)
- \* Bajarish va moliyalashtirish jadvali (3- ilova)

7.14. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7.15. Ushbu shartnoma uzbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

7.16. Shartnoma amal kilish muddati 31.12.2022 yilgacha

### 8. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«Buyurtmachi»	«Ish bajaruvchi»
YAKKABOG' TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	"NAKSHAB DESIGNER MCHJ"
Manzili: Yakkabog' shahri A.Temur ko'chasi 47-uy	MANZIL: <i>Qarshi shahri</i>
Tel. Faks +99875 58-24-582	Tel: + 99891462-55-08
Shv\X 401722860102507045204110013	<i>Aloqabank ATB Qashqadaryo filiali</i> X\R 2020 8000 9044 2695 2001
Budjetdan mablag oluvchi STIR 200 711 074	INN: 205 761 650 OKED: _____
OKONX: 90211 MFO:00014 Bank:Markaziy BBXKKM	OKONX: _____ MFO:00401
«Yakkabog' tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i» :- S.Suyunov	"NAKSHAB DESIGNER MCHJ" boshlig'i: <i>R.Botirova</i> R.Botirova



2022 yil " 2 " dekabr

991-4-68-08/2022 son  
shartnomaga 1 -ilova

**Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha  
ASOSIY SHARTLAR**

1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.
2. Agar shartnoma bo'yicha bir Taraf ikkinchi taraf xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

"1008" ishonch telefoni;

Telegram-kanali («@anticorbot»);

Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

**BAJARUVCHI:**

« \_\_\_\_\_ »  
\_\_\_\_\_

**BUYURTMACHI:**

**Yakkabog' tumani hokimligi  
Obodonlashtirish boshqarmasi  
S.Suyunov / \_\_\_\_\_**



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR**  
**Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	SAFAR SUYUNOV XOLMATOVICH
Imzolangan sana	02.12.2022 15:29
Hujjat kodi	YM3358361718
Hulosa kodi	UV8825806068



Солик солиш объектлари ҳамда солик  
солиш билан боғлиқ объектлар тўғрисидаги  
маълумотлар базасини шакллантириш ва  
юритиш тартиби тўғрисидаги  
низомга 6-илова

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СОЛИҚ ҚЎМИТАСИ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Солик тўловчининг Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитасида рўйхатга  
олинганлиги ва унга идентификация рақами берилганлиги тўғрисида  
ГУВОҲНОМА

УДОСТОВЕРЕНИЕ

о регистрации в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан  
и присвоении идентификационного номера налогоплательщику

СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ - ЮРИДИК ШАХС  
НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИК - ЮРИДИЧЕСКОЕ ЛИЦО

Тўлик номи:  
Полное наименование:

"NAKHSAB DESIGNER" MAS'ULIYATI  
SHEKLANGAN JAMIYAT

Қискача номи:  
Краткое наименование:

"NAKHSAB DESIGNER" MCHJ

Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитасида рўйхатга олинди ва унга қуйидаги  
солик тўловчи идентификация рақами (СТИР) берилди:

Зарегистрирован в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан  
и ему присвоен идентификационный номер налогоплательщика (ИНН):

205761650

СТИР берилган сана: 25.07.2005  
Дата присвоения ИНН:

Рўйхатга олинган ДСИ:  
Зарегистрирован в ГНИ:

Қарши шаҳар

Ушбу Гувоҳнома Давлат солик қўмитасининг интернетдаги расмий сайти  
орқали шакллантирилган ва чоп этилган

Данное Удостоверение сформировано и распечатано через официальный сайт  
Государственного налогового комитета

Гувоҳнома чоп этилган сана:  
Дата распечатки удостоверения:

10.06.2022 13:38:13